

TALABANING MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Yunusaliyeva Xakimaxon Erkinovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Fizika-Matematika fakulteti tyutori

Annotatsiya:

Maqolada shaxsini rivojlantirishda ma'naviy me'yorlarning ahamiyati darajasi ijtimoiy tarbiyaga oid ilmiy qarashlarni yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitish, psixologik xizmat doirasida fikr yuritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ong, ma'naviyatining shakllanishi, xulq-atvor normalari, qadriyat, ma'naviy tarbiya, jamiyat, me'yor, ma'naviy rivojlanish.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ma'naviyat masalalariga, uning yoshlarda shakllanishi va rivojlanish muammosiga ulkan ahamiyat berib kelinmoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamiyat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida shunday fikrlarni aytdilar: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, ikkinchi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyatdir"¹. Yig'ilishda qayd etilishicha, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Bir qancha adabiyotlarda ma'naviyat masalalariga alohida to'xtalib o'tilganligi shu bilan bir qatorda davlatimiz rahbarining ma'naviyatga doir farmonlari chiqishi va qarorlari qabul qilinishi, mamlakatimizda Ma'naviyat va ma'rifat kengashi tuzilishi, Ma'naviyat targ'ibot Markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi va ularning joylardagi bo'linmalari tashkil etilishi va faol ishlab turishi, mamlakatimizda falsafa, madaniyatshunoslik, ma'naviyat asoslari, Tarbiya, pedagogika singari fanlar mutaxassislari tomonidan yuzlab monografiyalar, risolalar, maqolalar tayyorlanayotgani va chop etilayotgani, shu fanlar bo'yicha ma'naviyat mavzusiga aloqador o'nlab dissertatsiyalar tayyorlanayotgani mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga berilayotgan e'tiborning ko'lamidan dalolat beradi.

Ayni paytda psixologiya fanida ma'naviyat masalalariga bag'ishlab tayyorlangan va chop etilgan monografiya va risolalarning juda ham kam ekanligi, dissertatsiyalarning deyarli yo'qligi ko'zga tashlanadi. Holbuki, ma'naviyat va uning shakllanishidagi psixologik jihatlarni tadqiq qilish boshqa fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va mamlakatimizda shu

sohada olib borilayotgan amaliy ishlarning samaradorligini oshirishga jiddiy turtki berishi mumkin.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati ma'naviy barkamol, ruhan yetuk shaxslar jamiyati bo'lishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadigan omillardan biridir. Mavzuning dolzarbligini belgilaydigan yana bir muhim jihat shundaki, bizning jamiyatimizga yot bo'lgan kuchlar: terroristlar, diniy aqidaparastlar, transmilliy, kiberjinoyatchilik va boshqa buzg'unchi g'oyalarni tashuvchilar asosiy e'tiborni o'smirlar va yoshlarni o'z tomonlariga ag'darib olishga harakat qilmoqdalar. Sababi ma'naviyatga qilingan tahdid mamlakatni inqirozga olib kelishini mumkinligini ular juda yaxshi anglashadi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumshtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak". Hammamizga ma'lumki, 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. Biz ana shu ikki omil yoshlar tarbiyasi masalalariga bevosita bog'liq bo'lgani uchun ularni aytib o'tmoqdamiz. Shuning uchun o'smirlarni zo'ravon va tajovuzkor kuchlarning qo'liga berib qo'ymaslik vazifasi ham ularning ma'naviyati shakllanishiga, bu jarayonning psixologik jihatlarini tadqiq etishga birinchi darajali vazifa sifatida yondashishni taqozo etadi.

Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda qadriyatlarning o'zni muammosining psixologik jihatlarini, ayniqsa yoshlar va o'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik jihatlarini o'rganish naqadar muhimligi va ayni paytda mazkur muammo bo'yicha maxsus o'tkazilgan tadqiqotlarning yo'qligi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Mamlakatimizda ma'naviyat, qadriyatlar tarbiyaning muhim omili ekanligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlarda ma'naviyatning turli qirralarini yoritishga bag'ishlangan asarlar, tadqiqotlar tayyorlanishiga turtki berdi. Mazkur mavzu bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan V.Karimova, D.Anvarova, A.Begmatov, I.Ergashev, M.Jakbarov, A.Erkayev, S.Otamurodov, A.Qodirov, A.Mirzayev, F.Yuldasheva

singari olimlar qator asarlar yaratdilar. Bu asarlarda ma'naviyat va xulq-atvor masalasining xususiyatlari, tarkibiy qismlari, turli fanlar bilan aloqadorligi masalalari yoritildi. Taassuf bilan qayd etish lozimki, ma'naviyating shakllanishi va rivojlanishida namoyon bo'ladigan psixologik xususiyatlar mamlakatimiz psixologlari tomonidan hozircha deyarli ishlanmadi. Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda qadriyatlarning o'rni muammosining psixologik jihatlarini o'rganish naqadar zarurligi yana shunda ham ko'rinadiki, shu paytgacha yoshlar ma'naviyati shakllanishining psixologik mexanizmlari zamonaviy psixologiya talablari asosida yetarli darajada aniqlanmagan va o'rganilmagan. Shunday qilib, o'smir shaxsi rivojlanishida xulq-atvor va odat, qadriyatlarning o'rnini psixologik jihatlarini o'rganish naqadar muhimligi, lekin bu masala juda kam o'rganilgani, ayni paytda uni o'rganishga mamlakatimizda kuchli ehtiyoj mavjudligini anglash mazkur mavzuni dissertatsiya ob'ekti sifatida tanlash uchun asos bo'ldi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalariga bag'ishlangan asarlarida bu muammolar shaxs ruhiyati, psixologiyasi bilan bog'lab izohlanadi. Bunday yondashuv psixolog olimlar va tadqiqotchilar uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi. O'smirlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog-olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologlari tomonidan shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarni yetarli, deb bo'lmaydi. O'zbekistonda ma'naviyat va uning qadriyatlari bilan bog'liqligi, tarbiyada muhim omil ekanligi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, bu muammolarga davlat tomonidan, ayniqsa, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan katta e'tibor berilishi mazkur muammolarni atroflicha va barakali tadqiq uchun shart-sharoit yaratdi. Shuning natijasi o'laroq O'zbekiston olimlari ma'naviyatni ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng asosiy va muhim kategoriyalaridan biri sifatida e'tirof etmoqdalar. Bu kategoriyani tadqiq etishda mamlakatimiz faylasuflari, sotsiologlari, pedagoglari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda mamlakatimiz psixologiya fanida oqsashlar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Shaxsning murakkab tuzilmasida ma'naviyatning alohida o'rni aniqlanmagani, bu o'rin shaxs tuzilmasidagi birnecha tizimlar bilan bog'liq ekani uni tadqiq etishda murakkabliklarni vujudga keltiradi. Mazkur muammoni o'rganishdagi murakkabliklar, jumladan, ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga ta'sir o'tkazuvchi psixologik mexanizmlar tadqiq etilmagani bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishda eksperimental-psixologik tadqiqotlarning juda kamligi, mamlakatimizda esa maxsus o'tkazilgan bunday tadqiqotlarning deyarli yo'qligi sezilmoqda.

REFERENCES;

1. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
2. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o’quv qo’llanma. O’quv qo’llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
3. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o’gishgan bolalar psixologiyasi. O’quv qo’llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
4. Abdullayev, A. K., Abdullayeva, N. R., & Madraximova, M. A. (2022). THE BASIS IS A MOBILE INDUSTRIAL ROBOT CORECHARACTERISTICS AND SHAPE OF THE SPATIAL STRUCTURE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
5. Abdullayeva, N., & Abdullayev, A. (2023). MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI O’RNI. *Interpretation and researches*, 1(8).
6. Husseynov, Z. R., Abdullayev, A. K., Aliyeva, B. M., & Huseynli, N. (2019). PREPARATION AND IMPLEMENTATION OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT MASTER PLAN FOR ADMINISTRATIVE RAYON BASED ON SUSTAINABLE AND INCLUSIVE DEVELOPMENT PRINCIPLES. In *Economic and Social Development (Book of Proceedings)*, 37th International Scientific Conference on Economic and Social Development– (p. 623).
7. Abdullayev, A. K., & Aliyeva, B. M. (2018). About One Task of Mixed Integer Programming of Large Dimension and its Solving Algorithm. *Scholedge International Journal of Multidisciplinary & Allied Studies*, 5(7).
8. Abdullayev, A. Q., & Abdullayeva, N. R. UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. *МҲАЛЛИЙ СЕҶМ ЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ*², 99.
9. Qodiraliyevich, A. A. (2023). ISSUES OF PREPARING FUTURE TEACHERS IN US PRACTICE. *Gospodarka i Innowacje.*, 40, 16-19.